

## KARAMDOSHLAR (BRASSICACEAE) OILASINING AHAMIYATI VA KAMYOB TURLARI

A.X.Mammadiyev

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi.

Eshqurbonova Gulmira Ilhom qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11497469>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada karamdoshlar oilasiga mansub turlar biologiyasi, amaliy ahamiyati, shuningdek Iskandera hissarica N. Buschva Parrya saxifraga Botsch. et Vved kabi kamyob turlari haqida ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** Hisor iskandari, toshbuzar parriyasi, qurama parriyasi, To'palang, Tojikiston, gulkaram, pekin karam, raps, xantal, Qo'ytosh, bryuvka, savoy karam, kolbari.

### SIGNIFICANCE AND RARE SPECIES OF BRASSICACEAE FAMILY

**Abstract.** In this article, the biology and practical importance of species belonging to the cabbage family, as well as Iskandera hissarica N. Busch and Parrya saxifraga Botsch. information about rare species such as et Vved.

**Key words:** Hisar Iskandar, Tasbuzar Parriya, Kurama Parriya, Topalang, Tajikistan, Cauliflower, Peking Cabbage, Rapeseed, Mustard, Koytosh, Brewery, Savoy Cabbage, Kolbari.

### ЗНАЧЕНИЕ И РЕДКИЕ ВИДЫ СЕМЕЙСТВА BRASSICACEAE

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены биология и практическое значение видов, принадлежащих к семейству капустных, а также Iskandera hissarica N. Busch и Parrya saxifraga Botsch. информация о редких видах, таких как эт Введ.

**Ключевые слова:** Хисар Искандар, Тасбузар Паррия, Курама Паррия, Топаланг, Таджикистан, Цветная капуста, Пекинская капуста, Репс, Горчица, Койтош, Пивоварня, Савойская капуста, Колбары.

**Kirish.** Sabzavot va poliz ekinlari qishloq xo'jalik ekinlari orasida eng muhim o'rinlardan birini egallaydi. Insonning oziq-ovqat mahsulotlariga, ayniqsa, turli-tuman darmondorilarga bo'lgan ehtiyojini qondirishda sabzavotlarning ahamiyati benihoya kattadir.

Hozirgi vaqtda mustaqil Respublikamiz hukumati mamlakatda sabzavotchilikni rivojlantirish va aholini yangi sabzavot mahsulotlari bilan yil bo'yi ta'minlash masalalariga katta e'tibor qaratmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-son Farmoni ijrosini ta‘minlash, meva-sabzavot va uzumchilik sohasida yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish, eksport hajmini oshirish, foydalanishdan chiqqan va lalmi yerlarni o‘zlashtirish, paxta, g‘alladan qisqartirilayotgan maydonlarga eksportbop qishloq xo‘jaligi ekinlari ekishni ko‘paytirish amalga oshirilishi kerak.

Dunyoning barcha mamlakatlarida, O‘zbekistonning esa hamma hududlarida ekiladi.

Karam navlari ertachi, o‘rtacha ertachi, o‘rtacha kechki va kechki guruhlariga bo‘linadi. MDH da 103 dan ortiq navlari rayonlashtirilgan, bulardan oq karam navlari katta ahamiyatga ega.

2022-yilning yanvar oyida O‘zbekistonda karamning asosiy turlari eksporti rekord hajmda bo‘lgan edi. Buning sababi tashqi bozorlarda ushbu mahsulotga talab keskin oshganidir. Fevral oyida ham asosiy tashqi bozorlarda vaziyat oq boshli karam, Pekin karami, gulkaram va brokkoli yetishtiruvchi O‘zbekistonlik fermerlar va ekspert qiluvchilar uchun qulayligicha qoldi.

**Karamdoshlar (Brassicaceae)** - butguldoshlar oilasiga mansub bo‘lib, sabzavot va yemxashak ekinlaridir. Karamning Yevrosiyo va Shimoliy Afrikada 35 ga yaqin turi bor. Ko‘pgina turlari O‘rta dengiz atrofi va Xitoydan kelib chiqqan. Bryukva, raps, sholg‘om, surepitsa, xantal ham shu turkumga kiradi. Bir turi - poliz karamning juda ko‘p turlari xo‘jalik ahamiyatiga ega.

Dehqonchilikda ulardan oq boshli (bosh o‘raydigan oddiy) Karam qizil savoy karami, bryussel karami, kolrabi, gulkaram, pekin karami dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida ekiladi.

**Hisor iskandari** (*Iskandera hissarica* N. Busch) - bo‘yi 30 smga yetadigan, poyasining pastki qismi yog‘ochlangan, ko‘p yillik o‘t. Yopirma barglari teskari nashtarsimon, qisqa bandli, uzunligi 1–8 sm, eni 3–15 mm, yulduzsimon tukli. Gulpoyasi, odatda, bargsiz bo‘ladi.

Kosachabarglari cho‘ziqroq, binafsha rangli, uzunligi 8 mm, eni 6,5 mm. Qo‘zog‘i yuqoriga qaagan, 3–5 sm uzunlikda, keng nashtarsimon yoki chiziqli uzunchoq, yulduzsimon va bezsimon tuklar bilan qoplangan. May oilada gullab, mevasi iyun-iyulda yetiladi.

**Geografik tarqalishi.** Surxondaryo viloyati: Hisor tog‘i (Qorako‘l, Xondiza va To‘palang daryolarining yuqori irmoqlari) da tarqalgan. Tojikistonda ham uchraydi.

**O‘sish sharoiti.** Tog‘ning yuqori qismida, qoyalarning yoriqlarida o‘sadi.

**Soni.** Kam uchraydi, kichik-kichik to‘plar hosil qiladi. To‘palang daryosi havzasida 3000 tupi qayd qilingan.

**Ko‘payishi.** Urug‘idan ko‘payadi.

**O‘simlik soni va arealining o‘zgarish sabablari.** Aniqlanmagan.

**Madaniylashtirilishi.** OzR FA Botanika bog‘ida o‘stiriladi.

**Muhofaza choralari.** Maxsus muhofaza choralariri ishlab chiqilmagan (K. Sh. Tojiboyev ma'lumoti).



**Toshbuzar parriyasi** (*Parrya saxifraga* Botsch. et Vved) -bo'yi 10 sm yetadigan, deyarli poyasiz ko'p yillik o't. Qisqa poyasi quruq barg qoldiqlari bilan qoplangan. Ildizi ko'pboshchali. Yopirma barglari cho'ziq tuxumsimon, qattiq, chetlari tishli. Gulpoyalari bargsiz, ildizi oddiy, uzunligi 3–7 sm. Gullari binafsha rangli. Mevasi qo'zoq, yuqoriga qarab qayrilgan. Urug'i yassi, yumaloq, eni 2,5–5 mm, o'rta qismidan uchiga qarab ingichkalasha boradi. Iyun oyida gullab, mevasiavgustda yetiladi.

**Tarqalishi.** Toshkent, Namangan viloyatlari: Chotqol tizmasidagi Betog'alik, Qo'ytosh daralarida, Jindon, Orashon dovonlarida o'sadi.

**O'sish sharoiti.** Tog'larda 2600–2900 m balandlikdagi shag'allo yonbag'irlarda o'sadi.

**Soni.** Tabiatda yakka-yakka holda yoki kichik turlarni hosil qilib uchraydi. Bu tut tog'larning chiqish qiyim bo'lgan joylarida saqlanib qolgan.

**Ko'payishi.** Urug'idan ko'payadi.

**O'simlik soni va arealining o'zgarish sabablari.** Urug'ining unib chiqish darajasi past bo'lganligi tufayli kamayib bormoqda.

**Madaniylashtirilishi.** Ma'lumotlar yo'q.



**Muhofaza choralari.** Maxsus muhofazq qilish tadbirlari ishlab chiqilmagan(K. Sh. Tojibayev ma'lumoti).

**Xulosa** qilib aytadigan bo'lsak, bu oila turkum vakillarining inson hayotidagi roli katta. Karamdoshlar oilasining barcha vakillari organizmdagi deyarli barcha tizimlar salomatligi va faoliyati uchun ahamiyatli bo'lgan tabiiy antioksidant C vitamining koni hisoblanadi. Organizmdan toksinlarni chiqaradi, hujayralarni shikastlanishdan saqlaydi va immunitetni mustahkamlaydi. Karam inson salomatligi uchun juda ham foydali mahsulotdir. Karam tarkibida deyarli barcha vitaminlar mavjud, hatto oshqozon uchun muhim bo'lgan U vitamini, fitonsidlar, fermentlar hamda mineral moddalar mujassam. Karam ovqat hazm qilish tizimi tomonidan so'rilishi uchun xolesterin bilan raqobatlashadigan ikkita moddani o'z ichiga oladi. Yomon xolesterolni pasaytiradi. Karam - tarkibida B guruhi vitaminlari yuqori bo'lgan sabzavot hisoblanadi. B guruhiga kiruvchi vitaminlar ayniqsa asab tizimi uchun foydalidir. Shuningdek, u immunitetni mustahkamlovchi xususiyatlarga ega. Tarkibidagi tola va ba'zi moddalar bilan tanadan suvni olib tashlashga yordam beradigan bu sabzavot shu tariqa yaxshi qon aylanishini, shishning kamayishini, natriyni suv bilan birga tanadan olib tashlashni ta'minlaydi, shu bilan qon bosimini pasaytiradi. Oziq-ovqat yoki salat yuqori qon bosimi va shishgan odamlar tomonidan osongina iste'mol qilinishi mumkin. Qon bosimi yuqori bo'lgan bemorlar karamdan tayyorlangan salat va taomlarni iste'mol qilishi tavsiya etiladi.

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobi 1-jild 121-122 betlar
2. Sabzavotchilik va polizchilik Zuev V. I, Qodirxo'jaev O, Adilov M. M, Akramov U. Toshkent 2010- yil 95-96 yillar.
3. Серебряков И.Г. Морфология вегетативных органов высших растений. – М., Советская наука, 1952. с. 321. Ибн-Сино.